



Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg Minbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining ko'p nusxali gazetasi

2025-yil 26-Fevral № 2 (1548)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda



Ayol borki, olam munavvar!



*Navro'z bilan keladi shodlik,
Navro'z bilan elda obodlik.*

NAFOSAT VA YANGILANISH BAYRAMLARI MUBORAK BO'LSIN!

**Hurmatli metallurglar, ishlab chiqarish faxriylari!
Aziz onaxonlar, qadrlı opa-singillar!**

Sizlarni kirib kelayotgan bahor bayramlari – 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni hamda yangilanish va yasharish bayrami – Navro'z bilan kombinat boshqaruvi va shaxsan o'z nomimdan chin qalbidan tabriklayman! Bu ikki ajoyib bayram tabiatning uyg'onishi, yangi kunning boshlanishi, nafosat va go'zallik kabi o'ziga xos uyg'un ramziy ma'noga ega.

Xotin-qizlarning jamiyatda, oilada, mehnat jamoalarida tutgan o'rni beqiyos. Onaxonlarimiz va opa-singillarimizdan aql-zakovatlari, tuganmas mehri va fidokorona mehnatlari, fidoyiliklaridan juda minnatdormiz.

“O'zmetkombinat” Ajda mehnat qilayotgan xotin-qizlar yuqori malakali mutaxassislar bo'lish bilan birga faol jamoatchi, yaxshi uy bekasi, dono va mehribon ona hamdir.

Hurmatli opa-singillar!

Bugun Sizlar turli sohalarida – rahbarlik lavozimlaridan tortib ishlab chiqarish bo'linmalarida turli mas'uliyatli kasb va vazifalarda fidokorona mehnat qilayapsizlar. Sizlarning

bilimingiz, matonatingiz va fidoyiligingiz korxonamiz mavqeini mustahkamlash, metallurgiya sanoati va butun mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Ishlab chiqarishning eng “qaynoq” joylarida mehnat qilayotgan ayollarga alohida minnatdorchilik bildirmoqchiman. Sizlar fidoyilik va kasbga sadoqat namunasi, hurmat va hayratga loyiqsiz. Sizlarning mehnatingiz tufayli kombinatimiz nafaqat mamlakat metallurgiyasi bayroqdori bo'lib qolmoqda, balki yangi texnologiyalarni o'zlashtirib, ekologik toza ishlab chiqarish tamoyillariga e'tibor qaratgan holda dadil olg'a bormoqda.

Bahor faslida ko'p millatli xalqimiz sharqona yangi yil – Navro'zni ham nishonlaydi. Navro'z xalqimizning do'stlik va mehr-oqibat, hamjihatlik ramziga ega bo'lgan insonparvarlik bayrami. Navro'z – tabiat uyg'onishining tim-soli, insoniylik, mehr-oqibat, yaxshi qo'shnichilik, o'zaro yordam, muruvvat, mehnatsevarlik kabi qadriyatlarni o'zida ifoda etadi.

(Davomi 2-sahifada).

BUGUNGI SONDA

TABRIKLAR

Xalqimizga
xos qadriyat 2

EKOLOGIYA

Tabiatni asrash –
davr talabi 3

“O'ZMETKOMBINAT” AJ

Qonunchilik va
potensial muammolar 4

NIGOH

E'tibor va
g'amxo'rlik 7

BOR GAP

Tashmachining hiylasi
ish bermadi 9

SO'RAGAN EDINGIZ

Oylikdan 70 foizgacha
ushlasa bo'ladimi? 10

SALOMATLIK

Biz bilgan, ammo tan
olmagan ofat 11

TAFAKKUR QIL

Jannat onalar oyog'i
ostidadir 12

NAFOSAT VA YANGILANISH BAYRAMLARI MUBORAK BO'LSIN!

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Butun O'zbekistonda bo'lgani kabi kombinatimizda ham Navro'z alohida ehtirom va shodlik bilan nishonlanadi.

Bu kunlarda insonlarga mehr ko'rsatish, keksalarni ziyorat qilish, muhtojlarga yordam berish, xayriya tadbirlarini tashkil etish an'ana aylangan. Korxonamizda ana shunday xayrli an'analar bardavom.

2025-yil mamlakatimizda "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb e'lon qilingan. Yilimizga berilgan bu nom inson va tabiat uyg'unligini ifodalovchi Navro'z bayra-

mi bilan hamohangdir. Bu shunchaki shior emas, balki mamlakatimizda, jumladan kombinatimizda ham biz intilayotgan taraqqiyotning aniq yo'nalishi. Zamonaviy ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish, energiya samaradorligini oshirish, zararli chiqindilarni kamaytirish va atrof-muhitga g'amxo'rlik qilish – bularning barchasi faoliyatimizning ajralmas qismi.

Navro'z inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlik, ona zaminga mehr va e'tibor yaqqol o'z ifodasini topishini aks ettiradigan bayramdir. Bizning vazifamiz nafaqat asrlar mobaynida saqlanib

kelinayotgan bunday an'analarni asrab-avaylash, balki kelajak avlodlarimizga musaffo va obod zaminni qoldirishdir.

Aziz do'stlar! Bu bahor sizlarga quvonch, baxt-saodat olib kelsin! Oilangizda doimo tinchlik-xotirjamlik, farovonlik hukm sursin! Ishingizdagi muvaffaqiyatlar bizni yangi maralar sari chorlasin! Sizlarga sihat-salomatlik, omad, to'kin dasturxon va barcha ezgu orzularingiz amalga oshishini tilayman!

Dilshod AXMEDOV,

**"O'zmetkombinat" AJ Boshqaruvi raisi –
Bosh direktor.**



AYOLLARGA G'AMXO'RLIK – XALQIMIZGA XOS QADRIYAT

Mamlakatimizda xotin-qizlarga hurmat va ehtirom ko'rsatish, ularni ardoqlash, qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlar diqqat-e'tibor markazida bo'lib kelgan. Shuning uchun ham xotin-qizlarning hayot va mehnat sharoitlarini yaxshilash, ularga daxldor ijtimoiy muammolarni hal etishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

"O'zmetkombinat" AJ jamoasining 1889 nafarini xotin-qizlar tashkil etadi. 96 nafar opa-singillarimiz oliy ma'lumotli. Ulardan 38 nafari rahbarlik lavozimlarida, 242 nafari mutaxas-

Bu bayram oldidan metallurg xotin-qizlarga har yili pul mukofotlari berilishi yaxshi an'ana aylangan. O'tgan yili bu maqsad uchun 1 milliard 700 ming so'm sarflandi.



Xotin-qizlarga qo'shimcha ta'tillari uchun 687 million 605 ming so'm hamda 12 yoshgacha bo'lgan farzandlari bo'lgan ayollarga ta'tillari davrida 119 million 774 ming so'm to'lab berildi. Homiladorlik va tug'ish davrida bo'lgan ayollarga esa 1 milliard 897 million 505 ming so'm to'landi. Albatta bu ayollarga ko'rsatilayotgan hurmat-e'tibor, g'amxo'rlik ramzidir.

O'tgan yilning 6 avgust kuni kombinatimizga Toshkent viloyati hokimi o'rinbosari Zuhra Mirgazyeva boshchiligidagi bir guruh rahbar ayollar tashrif buyurishdi. Maqsad kombinatimizda mehnat qilayotgan ayollarimizning ishlash sharoitlari bilan yaqindan tanishish va ularning huquq va burchlari, yaratilayotgan sharoitlar, gender tenglik bo'yicha ahvolni o'rganish edi. Bu rahbar ayollardan iborat guruh tomonidan kombinatda metallurg xotin-qizlarga yaratilayotgan sharoitlarga yaxshi baho berildi.

18-sentabr kuni esa kombinatimizda gender auditi o'tkazildi. Ishchi guruh a'zolari kombinatning tarkibiy bo'linmalarida bo'lishib, ayollarga yaratilgan sharoitlar, ishlab chiqarish jarayonlari bilan tanishdilar. Tadbir davomida mehmonlar kombinatdagi mehnat munosabatlari tizimidagi islohotlarni, munosib mehnat

tamoyillari doirasida ishchilarning bandligini ta'minlash, xavfsiz va munosib mehnat sharoitlarini yaratish masalalarini yuqori baholadilar.

Kombinatimizda xotin-qizlarning sog'lig'ini asrash yo'lida olib borilayotgan ishlar ham namunali yo'lga qo'yilgan. O'tgan yili 14-17-noyabr kunlari Bekobod shahrida "O'zmetkombinat" AJ xotin-qizlar qo'mitasi, viloyat Xotin-qizlar boshqarmasi, Bekobod shahar hokimligi Oila va xotin-qizlar bo'limi hamkorligida kombinatda Onkologiya markazi mutaxassislari taklif qilinib viloyatimizda birinchi bo'lib tibbiy onkoskrining tekshiruvi o'tkazildi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda saraton kasalligining oldini olish borasida ko'plab amaliy sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Saraton davosiz kasallik emas, faqat xastalik qancha erta aniqlanib, davolash choralari ko'rilsa, bemorlar to'liq bu darddan forig' bo'ladi. Onkoskrining tekshiruvlari aynan shu maqsadga xizmat qilmoqda. O'tkazilgan tekshiruvlar davomida kombinatimizda ishlayotgan xotin-qizlarni teri tanosil onkologi, onkoginekolog, onkomammolog, UZD, rengenmammografiya bo'yicha mutaxassis shifokorlar tibbiy ko'rikdan o'tkazishdi. Shuningdek, bu tadbir doirasida kasalliklarning oldini olish bo'yicha malakali shifokorlarning ma'ruzalari ham tinglandi.

Bu tadbirni o'tkazganimizdan so'ng Toshkent viloyatining boshqa tashkilot va korxonalarida ham mana shunday onkoskrining tekshiruvlari o'tkazila boshlandi.

Kombinatimizda xotin-qizlar uchun yaxshi shart-sharoit va imkoniyatlarni yanada kengaytirish bizning asosiy vazifamizdir. Bu boradagi ishlar davom etadi.

Aziz va qadrli opa-singillar!

Sizlarni yaqinlashib kelayotgan Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan tabriklayman.

Sizlarga, sihat-salomatlik, oilaviy baxt, xonadonlaringizga fayz-u baraka tilayman.

Marhabo XALIKOVA,
**"O'zmetkombinat" AJ
Ayollar Kengashi raisi.**



sis, 452 nafari texnik, xizmat ko'rsatuvchi vazifalarida ishlaydi. 1157 nafar xotin-qizlar ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatmoqda.

O'tgan yili sirtqi ta'lim shaklida kombinat tavsiyasi bilan o'qiyotgan 18 nafar ayol oliy ta'lim muassasalari diplomini qo'lga oldi. Rossiyaning Kislovodsk shahrida 2 nafar vakilimiz Prezident akademiyasida iqtisodiy yo'nalishda malakalarini oshirib keldi. 513 nafar xotin-qiz yangi kasbga qayta tayyorlandi hamda egallab turgan lavozimiga malakasi oshirildi.

Xalqaro xotin-qizlar bayrami arafasida Elektrda po'lat eritish bo'linmasi kran mashinisti Shahnoza Patxitdinova "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi. Shuningdek, Yuridik departamentida bo'lim boshlig'i vazifasida ko'p yillar fidokorona mehnat qilgan Roza Ismoilova "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni bilan mukofotlandi.

2025-YIL –ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL IQTISODIYOT” YILI DAVLAT DASTURI QABUL QILINDI

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Prezident farmoni qabul qilindi.

Farmonga ko‘ra, “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida mamlakat rivojlanishining ustuvor yondashuvlari etib quyidagilar belgilandi, jumladan:

- mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash, ko‘chalarda yashillik darajasini oshirish, ekologik jihatdan qulay va farovon yashash muhitini shakllantirish;
 - aholining salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish va inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratish;
 - tabiiy resurslarni tejash va ulardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlik ni ta‘minlash;
 - o‘simlik va hayvonot dunyosini asrash, ko‘paytirish va keyingi avlodga yetkazish hamda biologik xilma-xillikni saqlash;
 - “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini keng joriy qilish, iqtisodiyotni iqlim o‘zgarishiga moslashtirishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish;
 - respublika energobalansida qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklik asosida yirik “yashil energiya” stansiyalarini barpo etish, hududlarda kichik va mikro gidroelektr stansiyalari tarmog‘ini kengaytirish, aholi xonadonlarida quyosh panellarini o‘rnatishni rag‘batlantirish.
- Ushbu dastur yurtimiz rivojlanishi va aholi salomatligi uchun muhim qadamdir.

AKSIYADORLAR KENGASHIB OLISHDI

Metallurglar madaniyat saroyida 11-fevral kuni “O‘zmetkombinat” AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilishga kombinat Kuzatuv kengashi a‘zosi – Iqtisodiyot va moliya vazirligi davlat aktivlarini xususiylashtirish va transformatsiya qilish departamenti direktori Jamshid Abdushukurov raislik qildi.

Yig‘ilishda bir qator muhim masalalar muhokama qilindi. Shu jumladan, aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi reglamentini va sanoq komissiyasi tarkibini tasdiqlash, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-iyuldagi qarori ijrosini ta‘minlash, “O‘zmetkombinat” AJ Kuzatuv kengashi a‘zolarini rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi nizomni yangi tahrirda tasdiqlash masalalari bo‘yicha korporativ

munosabatlar boshqarmasi boshlig‘i Shahnoza Abdurahmonova ma‘ruza qildi.

“O‘zmetkombinat” AJning yangi tahrirdagi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash masalasida aksiyadorlarga Xodimlar va tashkiliy rivojlanish direksiyasi direktori Natalya Pleskachevskaya ma‘ruza qilib, mazkur o‘zgartirishlar maqsadi haqida ma‘lumot berdi. “O‘zmetkombinat” AJning 2024-yil moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining yakunlari, moliyaviy hisobotlarning milliy standartlari talablariga muvofiq tekshirish uchun auditorlik tashkilotini belgilash masalasida kombinat bosh buxgalteri Bahodir Eshonxo‘jayev aksiyadorlarga atroflicha ma‘lumot berdi.

Aksiyadorlar yig‘ilishida kun tartibiga kiritilgan barcha masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

JAMOA SHARTNOMASINING BAJARILISHI VA KASABA UYUSHMASI QO‘MITASINING HISOBOT-SAYLOV KONFERENSIYASI

AXBOROT

Metallurglarning ijtimoiy-iqtisodiy himoya qilinishi, mehnat qilib, dam olishlari, sog‘liklarini mustahkamlashlari borasidagi ishlar kombinat boshqaruvi va kasaba uyushma qo‘mitasi o‘rtasida tuzilgan jamoa shartnomasi asosida olib boriladi. Ana shu jamoa shartnomasi bajarilishini muhokama qilish, kelgusi rejalarni belgilab olish maqsadida 22-fevral kuni Metallurglar madaniyat saroyida “O‘zmetkombinat” AJ mehnat jamoasining 2023-2024-yillarda jamoa shartnomasi va ilovalarining bajarilishi va Kasaba uyushmasi qo‘mitasining hisobot-saylov konferensiyasi bo‘lib o‘tdi.

Yig‘ilishga Metallurgiya va mashinasozlik sanoati xodimlari Kasaba uyushmalari Respublika Kengashi raisi, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sanoat xodimi” Ahmadjon Haqulov raislik qildi.

Kun tartibidagi birinchi masala – “O‘zmetkombinat” AJ mehnat 2024-yilda jamoa shartnomasi va uning ilovalarini bajarilishi hamda “O‘zmetkombinat” AJ Kasaba uyushmasi qo‘mitasining hisoboti va qo‘mita tomonidan ishchi xodimlarga ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida kelgusidagi vazifalari to‘g‘risida kombinat Kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi Elzara Veliullayeva ma‘lumot berdi.

Shuningdek, konferensiyada Kombinat markaziy laboratoriyasi boshlig‘i A. Vohidov, Rangli metallar ishlab chiqarish bo‘linmasi boshlig‘i A. Stulov, Temiryo‘l xizmati boshlig‘i B. Eshonqulovlar kasaba uyushma qo‘mitasi tomonidan kombinat ishchi-xodimlariga ko‘rsatilayotgan ijtimoiy hamda moddiy yordamlar to‘g‘risida so‘zga chiqishdi.

Konferensiyada “O‘zmetkombinat” AJ mehnat jamoasining 2023-2024-yillarda jamoa shartnomasi va shartnoma ilovalarining bajarilishi qoniqarli deb baholandi.

Shundan so‘ng O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasining nizomiga asosan delegatlar tomonidan yashirin ovoz berish orqali nomzodlar orasidan Kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisini saylash jarayoni bo‘lib o‘tdi. Sanoq komissiyasining hisoblash natijalariga ko‘ra, saylovda Elzara Veliullayeva “O‘zmetkombinat” AJ Kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi lavozimiga saylandi. Yig‘ilishda Kasaba uyushmasi qo‘mitasi tarkibi hamda “O‘zmetkombinat” AJ Kasaba uyushmasi qo‘mitasining taftish komissiyasi tarkiblari ham saylandi.

Bahodir RAHMONQULOV.

TABIATNI ASRASH – DAVR TALABI

Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yiliga mo‘ljallangan davlat dasturidagi ustuvor vazifalar, yo‘nalishlar bizni quvontiradi. Unda atrof-muhitni asrash, ekologik vaziyatni yaxshilash, yashil energiyani rivojlantirish masalalariga keng o‘rin berilgan. Bu keng qamrovli dastur O‘zbekiston rahbariyatining mamlakatni har tomonlama rivojlantirish borasidagi intilishlarining tasdig‘idir.

“O‘zmetkombinat” AJda ham atrof-muhitni asrash, atmosferaga zararli moddalarning chiqarilishini, ishlab chiqarish oqava suvlari-ning tabiiy suv havzalariga tashlanishini yanada kamaytirish, yashil maydonlarni kengaytirish, yer resurslarini muhofaza qilish bo‘yicha ishlari har yili belgilangan reja asosida olib boriladi. Bu yil ham atrof-muhitni himoya qilishda belgilangan ishlarni amalga oshirish uchun kombinat boshqaruvining buyrug‘i chiqarildi.

Buyruqda kombinatda atrof-muhitni himoya etish uchun jami 77 ta tadbir amalga oshirilishi belgilangan. Ularning 28 tasi suv havzasini, 23 tasi o‘simlik dunyosi va yer resurslarini, 26 tasi atmosfera havosini asrashga qaratilgan tadbirlardir. Mana shu tadbirlar orasida Elek-



trda po‘lat eritish bo‘linmasi pechining gaz chiqish yo‘li chang to‘planish bunkerini kengaytirish, Zoldir prokat bo‘linmasi “KJ-34” payvandlash dastgohining chang va gaz so‘rgich moslamasini ta‘mirlash, Xalq iste‘moli mollari ishlab chiqarish bo‘linmasi gaz tozalash uskunasi ta‘mirlash, Temir-tersaklarni qayta ishlash bo‘linmasida metall parchalarini kesishda rezina mahsulotlarini yoqishga yo‘l qo‘ymaslik, ularni belgilangan joyga yig‘ish va utilitatsiya qilish kabilar bor. Shuningdek, buyruqda kombinat va unga tutash hududlarda “Yashil makon” umumiy loyihasi doirasida manzarali daraxt, gul ko‘chatlari ekishni davom ettirish, mavjudlarini parvarishlash, ularning sug‘orish tizimlarini tartibga solish, qurt-qumursqalarga qarshi dorilash ishlari ham belgilangan.

Ekologiya va atrof-muhit muhofazasini ta‘minlash, ko‘kalamzorlashtirish va “Yashil makon”lar barpo etish, daraxtzor va butazorlarni asrash va shu kabi bugungi kundagi eng muhim vazifalarni hal etish kombinatda dolzarb masalalar qatoridan joy olgan.

Ismat DIYOROV.

KORRUPSIYA – ASR VABOSI

Jamiyatni tanazzul sari yetaklaydigan, har bir millat kelajagini xavf ostida qoldiruvchi illatlardan biri bu shubhasiz korrupsiya va poraxo'rlikdir. Ushbu illatlar jamiyatda adolatsizlik, tengsizlik va aholining noroziligiga olib keladi, bu esa barcha sohadagi islohotlarning natijasiga salbiy ta'sir etmay qolmaydi

Xalqaro valyuta jamg'armasining ma'lumotlarida dunyoda korrupsiya va poraxo'rlik natijasida yiliga 1,5-2 trillion dollar mablag' o'zlashtirilib, jahon iqtisodiyotiga katta zarar yetkazilayotgani qayd etilgan. Shu bois korrupsiya va poraxo'rlikni hech ikkilanmay "asr vabosi" va "taraqqiyot kushandasi" deb atash mumkin.

Korrupsiya chegara bilmaydi. U jamiyatning barcha jabhalariga kirib borib, qadriyatlar tizimi, odob-axloq me'yorlarini buzadi. Fuqarolarning erkinlik va demokratiya tamoyillariga, adolatga, davlatga bo'lgan ishonchiga putur yetkazadi. Bir so'z bilan aytganda, ushbu illatni bartaraf etmasdan turib, hech qanday jamiyat barqaror rivojlanishi mumkin emas.

Korrupsiyaga qarshi kurashish O'zbekistonda davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Buni so'nggi yillarda sohaga oid qabul qilingan konseptual ahamiyatga ega normativ-huquqiy hujjatlar, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan ma'muriy islohotlar misolida ham ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasida O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yuritadilar, deb belgilangan. Shunday ekan, davlatning yuzi bo'lgan Konstitutsiya fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishi barobarida, davlat organlarida xizmat

qilayotgan mansabdor shaxslarni, xizmatchilarni fuqarolar manfaatlariga zid ke- luvchi xatti-harakatlardan tiyilishni talab etadi.

Mamlakatimizda korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi jiddiy kurash olib borilmoqda. Respublika Bosh prokuraturasi ma'lumotlariga ko'ra 2024-yilda O'zbekistonda 4906 nafar mansabdor shaxs jinoiy javobgarlikka tortildi, bu 2023-yilga (3575) nisbatan 37,2 foizga ko'p. Javobgarlikka tortilgan mansabdor shaxslarga nisbatan jinoyat ishlari soni 3821 tani tashkil etdi, bu 2023-yilga (3412) nisbatan 12 foizga ko'p. Ular davlat va jamiyat manfaatlariga 3,6 trln. so'm yoki o'tgan yilga nisbatan 2,3 barobar ko'p zarar yetkazdi.

Mana shunday korrupsioner va poraxo'rlar davlatimiz rivojlanishiga, xalqimizning yanada farovon yashashiga to'siq bo'lmoqda. Bu illatga qarshi kurashish tegishli organlarninggina emas, barchaning ishi bo'lishi zarur. Shundaygina biz ushbu xavfni bartaraf etgan bo'lamiz. Ularga qarshi kurashish bilan biz vatanimiz, xalqimizning taraqqiyoti, oilamiz farovonligini ta'minlashga erishamiz.

"Korrupsiya va poraxo'rlik illatlarini birgalikda yengamiz", degan fikrni har birimiz ongimizda shakllantirishimiz shart. Bu borada

Korrupsiya mamlakat ravnaqini barbod qiladi



o'nqlanish, siljish qilmasak, korrupsiya illati farovonchiligimizga soya solib turaveradi. Toki, biz oilada, ishxonada, maktabda o'g'il-qizlari-

miz ongiga, ruhiyatiga tamagirlik, poraxo'rlik yomon illatgina emas, balki u jamiyatimiz tanazzuli, iqtisodiyotimiz orqaga ketishi sababi ekanligini singdirishimiz kerak. Bu borada ko'proq tarbiyaviy va targ'ibot ishlarini olib bormasak, maqsad-muddaoga erisha olishimiz qiyin.

Qadrli metallurglar! Korrupsiyaga qarshi kurashish barchamizning burchimiz ekanligini anglashimiz, uning oldini olish, yo'q qilish, unga nisbatan murosasiz bo'lishda har birimiz o'z hissamizni qo'shmog'imiz zarur. Zero, har qanday huquqbuzarlik, jinoyatning sodir etilishiga, ularning ko'payishiga va barham berilmasligiga o'zimizning befarqligimiz, loqaydligimiz sabab bo'lishi mumkin. Barchaning korrupsiyaga qarshi kurashish yo'lida bir maqsad sari birlashib, harakat qilishi, davlatimiz taqdiriga befarq qaramasligi har qanday ko'rinishdagi korrupsiyaning barham topishiga xizmat qiladi.

Shu o'rinda, kombinatimizda korrupsion harakatlar sodir etilganligining guvohi bo'lganingizda, bu kabi salbiy holatlarning oldini olish va unga qarshi kurashish har biringizning burchingiz ekanligini yodda tuting!

"O'zmetkombinat" AJda va uning hududiy filiallarida korrupsiyaviy xatti-harakatlar, xizmat vakolatini suiistemol qilish, xizmat vakolatlaridan chetga chiqish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yish, odob-axloq talablarini buzish holatlarining oldini olish maqsadida "Aloqa raqami" faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Agar sizda kombinat faoliyati bilan bog'liq muammo bo'lsa 1707 kombinatning ichki telefon raqamiga va 70 214 19 17 hamda 90 998 67 20 raqamlariga qo'ng'iroq qilib murojaat etishingiz mumkinligini va murojaatchining shaxsi sir saqlanishi kafolatlanishini eslatib o'tamiz.

To'lqin XOJIYEV,
"O'zmetkombinat" AJning Kuzatuv Kengashi
huzuridagi Komplaens xizmati boshlig'i.

"O'ZMETKOMBINAT" AJDA TO'QNASHUVCHI XAVFLAR: QONUNCHILIK VA POTENSIAL MUAMMOLAR

"O'zmetkombinat" AJ mamlakatimiz sanoatida va iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Kombinatda qonunchilikka rioya qilish, shaffoflik va adolatni ta'minlash asosiy talablardan biridir. Shu sababli metallurgiya sanoatida uchrashi mumkin bo'lgan bir necha muhim xavflar haqida ogohlantirish va ularni bartaraf etish choralari ko'rish lozim.

Antimonopol xavflar. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 3-iyuldagi "Raqobat to'g'risida"gi Qonuni bozorda raqobat muhitini yaxshilash va tadbirkorlik erkinligini mustahkamlashni maqsad qiladi. Tashkilotlar tomonidan raqobatga qarshi kelishuvlar, narxlarni sun'iy ravishda oshirish yoki bozorda monopol mavqeni suiiste'mol qilish kabi xatti-harakatlar amalda qonunbuzarlik hisoblanadi. Bunday holatlar metallurgiya bozorida boshqa ishtirokchilar manfaatlariga ziyon yetkazadi va iqtisodiy o'sishni to'xtatib qo'yishi mumkin.

Pora olish yoki berish xavflari. Korrupsiya – har qanday sohaning barqaror rivojlanishiga jiddiy tahdid soluvchi omildir. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni hamda Jinoyat kodeksida pora olish yoki berish bilan bog'liq jinoyatlar uchun og'ir jazo choralari ko'zda tutilgan. Korrupsiya holatlari ishlab chiqarish jarayonida mahsulot xarid qilish, shartnomalar tuzish yoki mansabdor shaxslar

bilan kelishuvlar olib borishda sodir bo'lishi mumkin. Bunday jinoyatlar ishbilarmonlik muhitiga jiddiy putur yetkazadi.

Firibgarlik xavflari. Kombinat ichida yoki tashqarisida firibgarlik holatlari (hisobotlar bilan aldov, moddiy mablag'lar yoki xomashyoni tasarruf etishda nomaqbul harakatlar) xavflidir. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga muvofiq, moliyaviy yoki boshqa ko'rinishda ziyon yetkazuvchi bunday xatti-harakatlar uchun javobgarlik belgilangan.

Manfaatlar to'qnashuvi xavflari. Kombinat manfaatlar to'qnashuvi rahbarlar yoki xodimlar shaxsiy yoki oilaviy manfaatlarini kombinat manfaatidan ustun qo'yganda yuzaga keladi. Bu xavf qarindoshlar bilan asossiz shartnomalar imzolash kabi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin. Qonunchiligimiz bunday xatti-harakatlarning oldini olish va manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish tartiblarini belgilab beradi.

Xizmat vakolatini suiiste'mol qilish

xavflari. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida mansabdor shaxslar tomonidan o'z xizmat vakolatlarini suiiste'mol qilish, vakolat chegaralaridan chiqib ketish yoki bunday suiiste'mol orqali shaxsiy manfaat ko'zlash qat'iy taqiqlanadi. Kombinatda rahbariyat tomonidan noqonuniy buyruqlar berish, xodimlarni majburiy ravishda shaxsiy maqsadlariga yo'naltirish kabi holatlar qonun oldida javobgarlikka sabab bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, kombinatda to'qnashuvchi mazkur xavflar nafaqat korxonaning obro'siga, balki umumiy iqtisodiy taraqqiyotga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Qonunchilikni puxta bilish, muntazam o'quv va nazorat tizimlarini joriy qilish, barcha xodimlarning yuridik xabardorligini oshirish – ushbu xavflarning oldini olishda eng samarali vositalardir.

Shu bilan birga barcha manfaatdor shaxslar, kombinat rahbariyati va xodimlarini qonunbuzarliklardan ogoh bo'lishga, shaffoflikni ta'minlashga va korxona rivojiga munosib hissa qo'shishga chaqiramiz.

To'lqin XOJIYEV,
"O'zmetkombinat" AJning Kuzatuv Kengashi
huzuridagi Komplaens xizmati boshlig'i.

EKSPORT KO'PAYDI

Rangli metallar ishlab chiqarish bo'linmasi joriy yilning dastlabki oyini mehnatda yuqori natijalar bilan yakunladi. Yanvar oyida mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni buyurtmachilarga yetkazib berish rejalari oshig'i bilan bajarildi.



Bu bo'linmada tayyorlanayotgan mahsulotlar respublikamizda elektrotexnika sanoatining mis mahsulotlariga bo'lgan talabini qondiradi. O'tgan yanvarda mis va mis qotishmalaridan tayyorlanadigan folga, lenta va tasmalar "Avtotraktorradiatori" qo'shma korxonasi, "Electric sales" MCHJ, "Standart elektro texnika" MCHJ, "Amistron grant mix" xususiy korxonasi, Navoiy kon-metallurgiya kombinati AJ kabi korxona va



firmalarga yuklab berildi.

Quvonarlisi mahsulotlarni eksport qilishda ham belgilangan prognoz ko'rsatkichlari bir necha borziodi bilan ado etildi. O'tgan oyda rangli metall mahsulotlari Turkiya va Qozog'iston davlatlari firmalariga eksport qilindi.

Bahodir RAHMONQULOV.

PO'LAT SIMLARGA TALAB KATTA

Navli prokatlash bo'linmasi-ning po'lat simlar ishlab chiqarish uchastkasida rejalari ortig'i bilan bajarilmoqda. Uchastkada ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotlar sifati va xaridorgirliigi bilan iste'molchilar e'tiborini tortadi.

Ma'lumki, bu yerda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar qurilishlarda keng qo'llaniladi. Shu sababli po'lat simlarga talab katta.

Uchastka ishchi-xodimlari oshib borayotgan ehtiyojni hisobga olib o'zlariga belgilangan vazifalarini sidqidildan bajarib kelayaptilar. Joriy yilning dastlabki oyida jamoa 332 tonna mahsulot ishlab chiqarib, rejani 111 foizga ado etdi. Yanvar oyida uchastkada diametri 6,3 mm. po'lat simlardan 82 tonna, diametri 8,0 mm. po'lat simlardan 131 tonna, "Vr-1" diametri 5,0 mm. bo'lgan po'lat simlardan 29 tonna, "Vr-1" diametri 4,0 mm. bo'lgan po'lat simlardan 31 tonna ishlab chiqarildi.

Jamoda erishilayotgan mehnat yutuqlarida Otabek Hamdamov boshchiligidagi 3-brigadaning munosib hissasi bor. Sim tortuvchilardan Otabek Soriyev, Azizbek Parpiyev, Fozil Jonjigtoev, Komil Qambaraliyev kabilari mehnatda boshqalarga ibrat bo'lishmoqda. Mana shunday o'z kasbining ustalari sa'y-harakatlari bilan jamoda belgilangan vazifalar muntazam ravishda bajarilib kelinmoqda.



YUTUQLARGA ERISHILMOQDA

Tajriba konstruktorlik laboratoriyasi jamoasi zimmalaridagi reja-topshiriqlarni o'z vaqtida bajarib kelmoqda. Jumladan, Elektrda po'lat eritish bo'linmasi uchun otish mashinasi tayyorlandi. U sinovdan muvaffaqiyatli o'tdi. Ushbu buyurtma Metall konstruksiyalar bo'linmasi bilan hamkorlikda olib borildi. Otish mashinasining vazifasi Elektrda po'lat eritish bo'linmasi pechining ichki qismini yamash uchun xizmat qiladi.

Bundan tashqari Metallurgiya ilmiy markazi boshchiligidagi sinov uchun egiluvchi-aylanuvchi pech tayyorlash ishlari jadal olib borilmoqda. Ushbu pechda turli markadagi po'latlarni sinov yo'li bilan eritish o'zlashtirilishi belgilangan.

Shuningdek, Navli prokatlash bo'linmasi uchun stan-300 12-kleti vollarini modernizatsiya qilish ishlari yakuniga yetib qoldi. Bundan maqsad klet vollarini chetdan sotib olmasdan mahalliyashtirish dasturi asosida ularni kombinatda tayyorlashdir.

Tajriba konstruktorlik laboratoriyasi jamoasi mana shunday vazifalarni bajarish uchun sidqidildan mehnat qilmoqda. Tajribali mutaxassislardan iborat ahil jamoa o'ziga yuklatilgan har qanday mas'uliyatli topshiriqlarni ham vaqtida va sifatli bajarishda muvaffaqiyatlarga erishmoqda.

Furqat XOLIQULOV.

BUYURTMACHILAR TALABI ASOSIDA

Metall konstruksiyalar bo'linmasining mahsulot nomenklaturasi juda xilma-xil bo'lib, bu yerda ko'plab buyurtmalar tayyorlanadi. Bo'linmada mahsulotlarning o'z vaqtida, sifatli tayyorlanishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Bo'linma kombinatda investitsiya loyihalarini amalga oshirishda bevosita ishtirok etib keladi. Hozirgi kunda bu joyda mamlakatimizning eng yirik investitsiya loyihalaridan biri bo'lgan Quyuv-prokatlash majmuasining qurilishi uchun buyurtma bo'yicha ishlar ham amalga oshirilmoqda.



Jamoa Quyuv-prokatlash majmuasi binolari uchun po'lat fermalar, to'sinlar, zinapoyalar va to'siqlar, shuningdek, po'lat quyish qozonlari uchun qopqoqlar tayyorlab berdi. Bundan tashqari, ishchi-xodimlar kombinatning asosiy tarkibiy bo'linmalari uchun ham bir qancha buyurtmalarni tayyorlashmoqda. Masalan, Navli prokatlash bo'linmasi uchun metall konstruksiyalar, Elektrda po'lat eritish bo'linmasiga suv bilan sovutiladigan panellar, kovsh va oraliq kovsh uchun qopqoqlar, Zoldir prokatlash bo'linmasida amalga oshirilayotgan rekonstruksiya ishlari uchun turli xildagi metall buyumlari, Ferroqotishmalar bo'linmasiga qisuvchi xalqalar, sovutish qobiqlarini tayyorlash kabi ishlarni bajarayaptilar.

Artur KULIYEV.

"YENGIL AVTOMOBILSIZ BIR KUN"

Avtomobillar chiqaradigan zararli gazlardan atrof-muhitni himoya qilish, piyoda yurishni targ'ib etish, kombinat xodimlari orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, shuningdek, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash maqsadida kombinatda haftaning har juma kuni "Yengil avtomobilsiz bir kun" aksiyasi o'tkazilmoqda.

Shu kuni tarkibiy bo'linma rahbarlari, o'rinbosarlari hamda ishchi-xodimlarning shaxsiy yengil avtomobilida, shuningdek, kombinat hududida faoliyat olib borayotgan firmalarning yengil xizmat avtomobillarida kombinat hududida yurmaslik tavsiya etiladi.

Bir kun davomida avtomobil o'rniga piyoda harakatlanish orqali inson ham o'z salomatligiga yordam beradi, ham ekologiya musaffoligiga hissa qo'shadi. Bugun texnika va texnologiyalarning rivoji natijasida kam harakatlilik, semizlik va boshqa turli xastaliklar ko'payib borayotgani hammamizga ma'lum. Ana shunday bir paytda insonlarning piyoda harakatlanishga chorlash, avtomobillardan chiqadigan zaharli gazlar miqdorini biroz bo'lsa-da kamaytirish evaziga atrof-muhit tozaligiga hissa qo'shish dolzarb ahamiyatga ega. Shunday ekan, agar siz salomatligingiz va atrof-muhitga yanada do'stona munosabatda bo'lishni istasangiz, "Yengil avtomobilsiz bir kun" da ishtirok eting.

Hurmatli metallurglar! "Yengil avtomobilsiz bir kun" jamoat loyihasiga befarq bo'lmang! O'zimiz nafas olayotgan havo toza bo'lishiga hissa qo'shing. Buning uchun esa shaxsiy avtomobillardan voz kechib, ekologik toza transport vositalaridan foydalaning. Unutmang, atrof-muhitni asrash barchamizning burchimizdir.

"O'ZMETKOMBINAT" AJDA TABIIY GAZNI TEJASHNING AMALIY AHAMIYATLARI

O'zbekistondagi yirik metallurgiya korxonalaridan biri bo'lgan "O'zmetkombinat" AJ uchun tabiiy gazni tejash nafaqat iqtisodiy, balki ekologik va huquqiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Tabiiy gazdan oqilona foydalanish va sarfini optimallashtirish mamlakatimizning barqaror rivojlanishi va energiya manbalarini tejashga qaratilgan ishlarning bir qismi sifatida davlat tomonidan alohida e'tiborga olinadi.



Iqtisodiy samara: Raqobatbardoshlikni oshirish va xarajatlarni qisqartirish

Metallurgiya jarayonlarida tabiiy gaz asosiy yoqilg'i turlaridan biri hisoblanadi. Shu bois, uni oqilona ishlatish orqali ishlab chiqarish xarajatlarni kamaytirish, mahsulot tannaxsini pasaytirish va korxonaning raqobatbardoshligini oshirish mumkin. Gaz sarfini qisqartirish metallurgiya sohasidagi ishlab chiqarish samaradorligini yanada yuksaltirishga yordam beradi, bu esa korxonaning iqtisodiy faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ekologik masala: Atrof-muhitni muhofaza qilish.

Gaz sarfini kamaytirish, shu bilan birga, atmosferaga chiqariladigan zararli moddalar miqdorini qisqartirishga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, atrof-muhitni muhofaza qilish va aholi salomatligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. "O'zmetkombinat" AJ atrof-muhitga ta'sirni minimallashtirish uchun zamonaviy texnologiyalar va qayta ishlash usullarini joriy qilishga intiladi.

Qonunchilikka rioya qilish

O'zbekiston Respublikasining qator qonunlari va Prezident farmonlari asosida gazdan oqilona foydalanish va energotejamkor uskunalarni joriy etish bo'yicha aniq maqsadlar belgilangan. Metallurgiya korxonalari energiya manbalarini tejash, energiya samaradorligini oshirish va ekologik holatni yaxshilash yo'lida qonunchilik talablariga to'liq rioya qilishlari lozim.

Tabiiy gazni tejash bo'yicha amaliyotlar va innovatsion texnologiyalar

1. Texnologik jarayonlarni modernizatsiya qilish: Issiqlik pechlari, eritish sexlari va boshqa texnologiyaviy uskunalarda zamonaviy monitoring tizimlarini o'rnatish. Bundan tashqari, metallurgiya jarayonlarida issiqlikni qayta ishlatish usullarini qo'llash orqali gaz sarfini qisqartirishga erishish mumkin.

2. Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari: Gaz sarfini aniq nazorat qilish, monitoring qilish va ma'lumotlarni doimiy tahlil qilish. Barcha uskunalarni yagona markazlashgan avtomatlashtirilgan tizim orqali boshqarish, shuningdek, aniq reglamentlar asosida gaz ta'minotini rejalashtirish imkoniyatini yaratish.

3. Mehnat xavfsizligi: Gaz bilan ishlaydigan uskunalarni xavfsiz ekspluatatsiya qilish va ishchi-xodimlarni zamonaviy usullar bilan o'qitish. Bu, o'z navbatida, korxonaning xavfsizligini ta'minlash va ish jarayonlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Energetik audit va rag'batlantirish tizimi

Gaz sarfini optimallashtirishning muhim elementlaridan biri — energetik auditdir. Korxonalarda mavjud barcha uskunalar va texnologiyalarni kuzatib borish, ularning ishlash samaradorligini baholash orqali gazni tejash bo'yicha samarali strategiyalar ishlab chiqish mumkin. Shuningdek, xodimlarni rag'batlantirish va motivatsiya qilish tizimini yaratish, ularning energiya tejash bo'yicha takliflarini qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiy barqarorlik

Gazni tejash bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, energiya auditorlarini o'tkazish orqali korxonaning ekologik holatini yaxshilash, shu bilan birga, barqaror rivojlanishini ta'minlash mumkin. Bu jarayonlar "O'zmetkombinat" AJning nafaqat iqtisodiy samaradorligini, balki ekologik mas'uliyatini ham kuchaytirishga yordam beradi.



tini ham kuchaytirishga yordam beradi.

Qo'shimcha tavsiyalar: Innovatsion loyihalar va davlat ko'magi

Xalqaro tajribaga tayanib, ishlab chiqarish jarayonlariga yangi texnologiyalarni tatbiq etish va davlat ko'magi orqali energiya tejamkor dasturlarini amalga oshirish muhim. Davlat grantlari va imtiyozlaridan foydalanish, shuningdek, maxsus rejimlardan oqilona foydalanish orqali metallurgiya korxonalari o'z ixtisoslashgan sohalarida barqaror rivojlanishga erishishlari mumkin.

Shaffoflik va jamoatchilik nazorati

Korxonaga xos bo'lgan ekologik va energiya tejash yo'nalishlaridagi maqsadlar, erishilgan natijalar va muammolarni ommaviy axborot vositalari bilan bo'lishish jamoatchilikning ishonchini oshirishga yordam beradi. Yosh va faol kadrlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish va yangi innovatsion g'oyalarni joriy etish, aniq natijalarga erishish imkonini yaratadi.

Xulosa

Tabiiy gazni tejash – bu faqat iqtisodiy foydalarni yo'lga qo'yish emas, balki atrof-muhitni muhofaza qilish va xavfsiz ishlashga xizmat qiladigan muhim yo'nalishdir. "O'zmetkombinat" AJda bu jarayonlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zamonaviy texnologiyalar va davlat qonunlariga to'liq rioya qilish muhim ahamiyatga ega.

Abror ABDULLAYEV
"O'zmetkombinat" AJ Kuzatuv
kengashi huzuridagi Komplaens
xizmati menejeri.

YAXSHILIK VA SAXOVAT, MEHR- MURUVVAT OYI

Oylarning sultoni, yaxshilik va saxovat, mehr-muruvvat oyi bo'lgan Ramazon kirib kelmoqda. Butun islom olami Ramazon oyini har vaqt xursandchilik va shodlik bilan kutib oladi.

Ramazon ma'naviy poklanish va axloqni sayqallash oyi. Ro'zador kishi o'zini nafaqat yeb-ichishdan, balki noma'qul gap-so'z va ishlardan ham tiymog'i lozim. Afsuski, bu haqiqatni unutib qo'yib, ro'zador bo'lishiga qaramay kun bo'yi behuda, yolg'on va g'iybat gap-so'zlar, noma'qul ishlar bilan mashg'ul bo'ladigan yoki odamlar bilan talashib-tortishadiganlar ham yo'q emas. Vaholanki, bunday ishlar ro'zaning savobini ketkazadi.

Ramazon oyi o'zaro birdamlik, mehribonlik ko'rsatiladigan, insonlar bir-birlari haqida qayg'urib, xato-kamchiliklarini kechiradigan oydir.

Kirib kelayotgan Ramazon oyi barcha yurtodoshlarimizga muborak bo'lsin!

Joriy yildagi Ramazon oyi 1-mart kundan boshlanishi aytilmoqda. Oy ko'rinishiga qarab bu bir kunga o'zgarishi mumkinligini ham ta'kidlash kerak.

RAMAZON TAQVIMI

Toshkent vaqti bilan

Ro'za kunlari	Mart	Hafta kunlari	Saharlik tugashi	Iftorlik boshlanishi
1	1	shanba	05:40	18:15
2	2	yakshanba	05:38	18:17
3	3	dushanba	05:37	18:18
4	4	seshanba	05:35	18:19
5	5	chorshanba	05:33	18:20
6	6	payshanba	05:32	18:21
7	7	juma	05:30	18:22
8	8	shanba	05:29	18:24
9	9	yakshanba	05:27	18:25
10	10	dushanba	05:25	18:26
11	11	seshanba	05:24	18:27
12	12	chorshanba	05:22	18:28
13	13	payshanba	05:20	18:29
14	14	juma	05:18	18:30
15	15	shanba	05:17	18:31
16	16	yakshanba	05:15	18:32
17	17	dushanba	05:13	18:34
18	18	seshanba	05:11	18:35
19	19	chorshanba	05:10	18:36
20	20	payshanba	05:08	18:37
21	21	juma	05:06	18:38
22	22	shanba	05:04	18:39
23	23	yakshanba	05:02	18:40
24	24	dushanba	05:01	18:41
25	25	seshanba	04:59	18:42
26	26	chorshanba	04:57	18:43
27	27	payshanba	04:55	18:44
28	28	juma	04:53	18:46
29	29	shanba	04:52	18:47
30	30	yakshanba	04:50	18:48

Ro'za tutish (saharlik, og'iz yopish) duosi

Navaytu an asuvma sovma shahri ramazona minal fajri ilal mag'ribi, xolisan lillahi ta'aalaa Allohu akbar.

Ma'nosi: Ramazon oyining ro'zasini subhdan to kun botguncha tutmoqni niyat qildim. Xolis Alloh uchun Alloh buyukdir.

Iftorlik (og'iz ochish) duosi

Allohumma laka sumtu va bika aamantu va a'layka tavakkaltu va a'laa rizqika aftartu, fag'firlii ma qoddamtu va maa axxortu birohmatika yaa arhamar roohimiyn.

Ma'nosi: Ey Alloh, ushbu Ro'zamni Sen uchun tutdim va Senga iymon keltirdim va Senga tavakkal qildim va bergan rizqing bilan iftor qildim. Ey mehribonlarning eng mehriboni, mening avvalgi va keyingi gunohlarimni mag'firat qilgil.

Mamlakatimizda keksa avlod vakillari-ning jamiyat hayotidagi ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Yoshi ulug'larga g'amxo'rlik, izzat-hurmat ko'rsatilishi, ularning salomatliklarini tiklash, nogiron, yakka-yolg'iz yashovchi keksalarni ijtimoiy himoya qilish masalalari yangi bosqichga ko'tarildi.

Metallurgiya sohasida ishlab pensiyaga chiqqanlarga ham imtiyozlar, qulayliklar yaratib berilmoqda. Faxriylarning boy professional hayot tajribasidan samarali foydalanish, keksa avlod vakillariga e'tibor va g'amxo'rlikni yanada kuchaytirish, davlat tomonidan ijtimoiy himoyani, moddiy, ma'naviy qo'llab-quvvatlashni yanada yaxshilash, shuningdek, yosh muta xassislarni tanlash va tarbiyalashda pensionerlar va mehnat faxriylarining noyob tajribalari, amaliy mahorati va salohiyatidan faol foydalanish maqsadida Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari Kengashi tashkil etildi.

"O'zmetkombinat" AJ faxriylari hamisha ardoqda. Ularni ijtimoiy muhofaza qilish, sog'liklarini mustahkamlash uchun ham bir qator tadbirlar tashkil etilmoqda. Kombinatda ishlab pensiyaga chiqqanlar mamlakatimizning malakali shifokorlari ishtirokida tibbiy ko'rikdan o'tkazilmoqda. Tibbiy ko'rik natijalariga ko'ra sog'lig'ida muammo bo'lganlarga yordam ko'rsatiladi.

Mana shunday mehr va g'amxo'rlikdan bahramand bo'lganlardan biri Rasul Nasriddinvidir. Rasul aka maktabni bitirishi bilanoq – 1979-yil metallurgiya zavodiga ishga kirgan. 18 yoshga to'lgandan so'ng harbiy xizmatga borib, so'ng yana zavodda ishni davom ettiradi. 1984-yildan 2012-yil – pensiyaga chiqquncha Marten sexi-ning pechida chilangar bo'lib ishlaydi.

E'TIBOR VA G'AMXO'RLIK



FAXRIYLAR ARDOQDA

– Ko'zim yaxshi ko'rmayotgan edi. Faxriylar Kengashimiz tashabbusi bilan Toshkentdan taklif etilgan malakali shifokorlar ko'rigidan o'tganimda ko'z gavharim yomonlashgani aniqlandi, – deydi mehnat faxriysi R. Nasriddinov. – Shundan so'ng faxriylar Kengashimiz meni jarrohlik amaliyoti o'tkazilishi belgilanganlar ro'yxatiga kiritib, navbatga qo'ydi. Mendan avvalgi og'ir bemorlardan so'ng navbatim kelgach Bekobod shahrida Toshkentdan tajribali shifokorlar chaqirib ko'zimning gavharini almashtirishdi.

Avval 3 metr naridagi odamni ham yaxshi ko'rmas edim. Ovozidan tanir edim. Xudoga shukr, endi 100-150 metr uzoqni ham bimalol ko'ryapman.

Prezidentimizga, kombinatimizga rahmat. O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati Faxriylar kengashi raisi

A. Farmonov, Kengashning Bekobod shahridagi hududiy filiali raisi I. Qurbonov va ular boshchiligidagi jamoalarda ishlaydiganlardan minnatdorman. Savobli va xayrli mehnatlarida Kengashimizga yanada katta muvaffaqiyatlar tilayman.

Mana shunday Faxriylar kengashi faoliyatidan xursand bo'layotganlar, ulardan naf olayotganlar ko'pchilikni tashkil etadi. Zero pensiyaga chiqqan faxriy metallurglar holidan xabar olish, yubiley yoshlarida va bayramlarda ularni tabriklab, muammolarini hal etishga ko'maklashish, zarur bo'lganda sanatoriyda sog'lomlashtirish va davolashni tashkil etish, sayohatlarga borishini ta'minlash kabi ishlarda ko'mak berayotgan faxriylar kengashi faoliyati mamlakatimizda nuroniylarga berilayotgan e'tiborning, g'amxo'rlikning yorqin ifodasidir.

Diyor ZULFIQOROV.



NAVRO'ZNING KO'RKI

Sumalak xalqimizning ardoqli shodiyonasi – Navro'zning ko'rkidir. Sumalak – Navro'zning shoh taomi bo'lib, u ilk ko'klam darakchisi, baraka, hosildorlik, to'kin-sochinlik, ahillik, tan sihatlik va ezgulik timsolidir.

Sumalak so'zining ma'nosi haqida turli rivoyatlar to'qilgan. Bir rivoyatda qayd etilishicha, qadim zamonlarda bir kambag'al ayolning yosh bolalari bo'lib, qishdan zo'r-bazur chiqishadi. Och qolgan bolalari non so'rab yig'lashadi. Nima qilarini bilmagan ona bolalariga "Bir pasgina o'ynab turinglar, men sizlarga ovqat pishirib beraman" deb qozonga suv solib tagiga o't qalabdi. So'ngra dalaga chiqib, o'tgan yilgi bug'doyzordan bug'doy tomirlarini, endigina nish ura boshlagan har xil o't-o'lanlarni terib kelib, yaxshilab yuvibdida, qozonga solibdi. Un xaltasini qoqishtirib bir-ikki kappa unni

qozonga tashlab, qaynata boshlabdi. Tun yarimdan oshgandan so'ng charchab uxlab qolibdi. Shunda "si malak", ya'ni, o'ttiz malak qozonni kavlab, qozonga tuz tashlab pishirib qo'yishadi. Tongda uyg'ongan bolalar "Ona bu ovqatingizni nomi nima?"deb so'rashibdi. Ona esa "Bu maloyiklarning karomati bilan pishdi. Uning oti "Simalak" - debdi. Bu so'z keyinchalik "Sumalak" bo'lib ketgan, degan naql bor.

Sumalak shifobaxsh taom. U gipertoniya kasalligiga yaxshi davo bo'lib, qon tarkibini yaxshilaydi. Tomirlar toraygan bo'lsa, qonni suyultiradi. Yana sumalak oshqozon va ichak ichki yo'lini tozalaydi, uning faoliyatini kuchaytiradi. Kishining issig'i ortib ketsa tenglaydi. Uyqusizlikdan forig' etadi, asablarni tinchlantiradi. Bundan tashqari ham sumalakning yana bir qator shifobaxshlik xususiyatlari bor.

YANGI KUN

Tonggi yelga peshvoz chiqadi onam,
Quyosh nurlaridan tilaydi tilak,
Qara, yangi kunga yetibmiz, bolam,
Baland tepalikda unibdi chechak!...

Qushlar chug'uriga quloq tut, bo'tam,
Poklik, ezgulikdan so'ylarlar ertak.
Anglaysan kurtaklar shivirida ham,
Baland tepalikda unibdi chechak!...

Baxt tilanadi, imon tilanar,
Bodom gullaridan oyday kelinchak.
Boqishida umid o'tlari yonar,
Baland tepalikda unibdi chechak!...

Maysalar tushadi kenglikda sadr,
Bahor qadamiga toshlar gul to'shak.
Fasli bahor yana topibdi qadr.
Baland tepalikda unibdi chechak!...

Momo kuymalanar o'choq boshida,
Doshqozon taratar elga sumalak,
Dilxushlik bor elim qari yoshida:
Baland tepalikda unibdi chechak!...

Tonggi yelga peshvoz chiqadi onam,
Quyosh nurlaridan tilaydi tilak.
Qara, yangi kunga yetibmiz, bolam:
Baland tepalikda unibdi chechak!...

Orif NOMOZOV.

Ko'p yillar Elektrda po'lat eritish bo'linmasida kran boshqaruvchisi bo'lib ishlagan shoir Orif Nomozov kombinat va shahar gazetalarida berilgan she'rlari, turli mavzulardagi maqolalari bilan bekobodliklarning mehri va hurmatini qozongan edi. Bugun u oramizda bo'lmasada o'zidan qoldirgan irod namunalari, jumladan she'rlari xalqimizning ma'naviyatini boyitishga xizmat qilmoqda.

GIMNASTRADA BARCHA UCHUN

Mamlakatimizda sport, xususan, xotin-qizlar sportini rivojlantirish, jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, oilalarda sportga qiziqishni yanada oshirishga qaratilayotgan doimiy e'tibor o'z samarasini berayapti.

Yurtimizda sportning gimnastada turi ommalashayapti. Chunki musiqa ohanglari ostida bajariladigan mashqlar xotin-qizlar kayfiyatini yanada ko'tarib, organizmdagi charchoqni chiqarishga yordam beradi. Shu bois mazkur sport turi bilan shug'ullanayotgan ayollar soni ko'paymoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari Kengashi Bekobod hududiy filiali qoshida mehnat faxriylari o'rtasida gimnastada sport turi ommaviyligini oshirish, xotin-qizlar reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish maqsadida "Buvijonlar" jamoasi tashkil etilgan. Bu gimnastada jamoasi bugunga kelib mamlakatimizda ham eng kuchlilar qatoridan joy olgan. Jamoa ko'p yillardan buyon xotin-qizlar o'rta-sidagi turli spartakiadalarda, "Ayollar sport festivali"da 45+ yosh toifasida g'oliblikni qo'ldan boy bermay kelayapti.

O'tgan yili ham jamoa bir qator yirik musobaqalarda muvaffaqiyatli qatnashdi. "Buvijonlar" jamoasi vazirliklar va idoralar kubogi uchun o'tkazilgan musobaqaning bosh sovrinini egalladi. O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari spartakiadasida g'olib chiqdi.

"Buvijonlar"ning eng katta yutug'i o'tgan yil 23-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti kubogi uchun bo'lib o'tgan musobaqada qo'lga kiritildi. Kubok uchun mamlakatimizning 33 ta jamoasi va 600 nafar ishtirokchi bahslashdi. Bu musobaqada jamoamiz o'zining respublikada eng kuchli ekanligini isbotlab, Prezident kubogi g'olibi va sohibiga aylandi. Shu g'alabadan bir oydan so'ng gimnastada bo'yicha Termiz shahrida bo'lib o'tgan O'zbekiston chempionatida esa "Buvijonlar" 45+ toifada 1-o'rinni egallab, chempion bo'lishdi.

O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari Kengashining homiyligi va yaqindan berayotgan yordami bo'lmaganda biz bunday natijalarga erisha olmagan bo'lar edik. Faxriylar kengashi raisi Aleksandr Farmonovga sport bilan shug'ullanib, yuqori natijalarga erishishimiz uchun imkoniyatlar yaratib berganligi uchun minnatdorchilik bildiramiz.

2025-yilda ham mehnat faxriylaridan iborat jamoamiz turli sport musobaqalarida metallurglar sharafiga munosib himoya qilishda davom etadi.

Irina OSMANOVA,
jamo'a a'zosi.



ONANG BO'LAR

Ostonaga qadam bossang saharmi shom,
Seni ko'rib go'yo ko'ksi osmon bo'lar.
Intiq kutib, yashayverar doim, mudom,
Kel, bolam deb kutgan o'sha onang bo'lar.

Ko'ngling yig'lar bo'lsa ag'yor jafosidan,
Suygan yoring qaytsa qilgan vafosidan,
Tavon kuysa yurganda dard, sahrosidan,
Sening-la dard yutgan o'sha onang bo'lar.

Umr yo'lida goh qadaming ketsa toyib,
Jisming shikast yesa, ruhing bo'lsa mayib,
O'zi tabib, ko'rgiliging o'zi koyib,
Sen-la og'u yutgan o'sha onang bo'lar.

Zar yig'insang oshna, og'a-singillar ko'p
Tegrang uzra aylanishib shodmon xo'p,
Qora kunda ko'zlaringga suqarlar cho'p,
Qadringga bir yetgan o'sha onang bo'lar.

Omad sendan ters aylanib ketganda ham,
Do'st-birodar yov yo'lini tutganda ham,
Tuqqan bolang yuzlaringga chopganda ham,
Holing ko'rib kuygan o'sha onang bo'lar.

Ruhing bo'lsa bir kun ko'kka ravona,
Yetti kunda unutgay yor-begona.
Faqat bitta bag'ri bo'lib vayrona
Voy, bolam, deb o'tgan o'sha onang bo'lar.

Orif NOMOZ.

HAYOTIY HIKOYA

"EHTIYOT BO'LGIN, BOLAM..."

Xurniso momo farzandi Salimjonni oq yuvib, oq tarab tarbiyaladi. Momo maktabda farrosh bo'lib ishlardi. Maoshi ko'p emas edi. Shunga qaramay yagona farzandining ilm olishi uchun hech narsasini ayamadi. O'g'li ham odobli, bilimli yigit bo'lib voyaga yetdi. U o'rta maktabni bitirib institutga o'qishga kirdi. Xurniso momo uyida qozon qaynatmasa hamki, bor pulini yig'ib o'g'liga jo'nataardi.

Salimjon institutni tamomlab, yirik sanoat korxonasida ta'minotchi vazifasidan ish boshladi. Onaxon o'g'lining ishidan ko'ngli to'q. Topganlariga baraka kirib qoldi. Momo o'g'lini tezroq uylash harakatiga tushib qoldi. Mahallaning oldi qizlaridan birini ko'z ostiga olib qo'yan. Momo o'g'li ishdan kelishi bilan bu haqda gap boshladi:

– O'g'lim mening ham yoshim 70 dan oshib qoldi. Endi oilamizga kelin kerak, nevarali bo'lsam, hovlimiz to'lib, ularni o'ynatib yursam, shunga nima deysan, – deb og'iz ochdi.

– Ey onajon Siz menga kelin topib qo'yan bo'lishingiz kerak, kim ekan u kelin bo'lmish, – deb so'radi.

Qizning nomini eshitishi bilan yigit darrov rozi bo'ldi.

Tez orada to'y ham bo'lib o'tdi. Momo niyat qilganidek, bir qiz va o'g'il nevarali bo'ldi.

Hamma ishlar juda yaxshi ketayotgan edi. Salimjon ishxonasida yuqori lavozimga ko'taril-

di-yu uning yurish turishi, muomalasi o'zgardi. Ichkilikka ruju qo'ydi. Xotini bilan tez-tez janjallashib qolardi. Kelinning ham toqati-toq bo'lib, ikki farzandini olib, otasinikiga ketib qoldi.

Har kuni mushtipar ona uyning ostonasida o'g'lini kutib, tunni bedor o'tkazardi. Tong saharda kelgan o'g'il onasiga:

– Siz nega uxlamay o'tiribsis? Boring xonangizga kirib, tinchgina yoting, – deb ovozi ko'tarib, jerkib berar edi.

– Ey, bolajonim, bunday yurishni, ichkilikni tashla, farzandlaring tarbiyasi bilan shug'ullanin, – deb nasihat qilardi ona.

Ammo o'g'il hech qanday nasihatlarini eshitgisi ham kelmasdi. Kunlarning birida o'g'il tun yarimida kiyimlari yirtilgan, loy-tuproqqa belangan holda zo'rg'a oyog'ida uyga kirib keldi U hatto onasini ham tanimadi.

– Bolajonim senga nima bo'ldi, yiqildingmi, qaerlarda yuribsan, – derdi ona farzandining usti-boshlaridagi tuproq va loylarni qaltiragan qo'llari bilan tozalab silar ekan.

Salimjon eshikdan kirmoqchi bo'lgandi, oyog'i chalishib, yonida uni suyab kelayotgan onasini zinapoyadan tushirib yuborganini ham bilmay qoldi. Shu alpozda uyiga kirib, uyquga ketdi. Ona esa yiqilgan joyida qoldi. Turishga madori ham yo'q, oyoq qo'llari unga itoat qilmas edi. Xurniso momo yotgan joyida:

– O'g'lim o'zingni ehtiyot qil, yiqilib tushmagin, ehtiyot bo'l..., – deb qayta-qayta takrorladiyu, Yaratganga o'zining omonatini topshirdi.

Salimjonga ichkilik o'z kuchini ko'rsatib jigarini ishdan chiqargan ekan. Onasining o'limidan ikki oydan so'ng u ham olamdan o'tdi.

Bahor kelib, qishloqdagi qabristonda obodonlashtirish ishlari bo'layotgan edi. Hasharda qatnashayotgan hamqishloqlar nigohi qabriston chetidagi ona va bola qabriga tushadi.

Ona-ning qabr ustida bahoriy maysalar ko'm-ko'k bo'lib yashnab, lolaqizg'aldoqlar-u, chuchmomolar avj urib gullagan edi. Yelvizak shabboda ona qabridagi yam-yashil maysalar va bahoriy gullarni tebratar, ular farzand qabriga egilib, unga talpinayotgandek edi.

Bir tup qamish esa shamolda yegilib bola qabrini siypalagandek bo'lib, har safar yelvizak shabboda esganda u o'zidan qandaydir nolaga o'xshagan ovoz chi- qarardi. Go'yoki Xurniso momoning:

– O'g'lim o'zingni ehtiyot qil, yomon yiqilmadingmi, ehtiyot bo'lgin bolam... – degandek mungli ovozi kelayotganga o'xshardi...

Akbarali ABDUALIYEV,
"Metallurg minbari" gazetasining
jamoatchi muxbiri.

TASHMACHINING HIYLASI ISH BERMADI

Davlat va jamoat mulkiga xiyonat qilish, tashmachilik hech qachon yaxshi oqibatlariga olib kelmagan. Bu ishni sodir qilganlar albatta, el-yurt oldida sharmanda bo'lishadi. Undaylar odamlar ishonchini ham yo'qotadilar.

“O'zmetkombinat” AJ hududida faoliyat olib borayotgan “Renasans” mas'uliyati cheklangan jamiyat ishchisi Sodir Asrorov (ism, familiyasi o'zgartirilgan) noqonuniy ishga qo'l urib jamoadoshlari ishonchini yo'qotganlardan biri.

Joriy yilning 7-yanvar kuni soat 10.00 larda S. Asrorov “O'zmetkombinat” AJ hududida faoliyat olib borayotgan “Renasans” MCHJdagi ish joyida qarovsiz qoldirilgan mis kabeliga ko'zi tushib qoladi. Uning fikri buzilib, bu rangli metallni yashirincha kombinat hududidan olib chiqib ketmoqchi bo'ladi. Bu g'arazli maqsadini amalga oshirish uchun mis kabelni oyog'iga o'rab oladi. O'zicha shunday qilsa undan hech kim shubhalanmaydi, deb o'ylaydi.

Biroq u “chuchvarani xom sanagan” ekan. Kombinatsion Idoraviy harbiylashtirilgan qorovullikning ziyrak qo'riqchilari uning bu hiylasini payqab qolishdi. Natijada tashmachining umumiy qiymati 840 000 so'm bo'lgan 20 kilogramm rangli metall mahsulotini yashirincha olib ketishining oldi olindi.



Kombinat mulkiga “ko'z olaytirish” uni sudning qora kursisiga o'tkazdi. 31-yanvar kuni Jinoyat ishlari bo'yicha Bekobod shahar sudi o'z binosida, ochiq sud majlisida bu ma'muriy ishni ko'rib chiqdi.

Sudda huquqbuzar qilgan ishidan chin ko'ngildan pushaymondaligini bildirdi. Bu holatdan o'ziga tegishli xulosa chiqarib olganligini aytib, yengillik berishni so'radi.

Sud ish hujjatlari bilan tanishib chiqib, huquqbuzar Sodir Asrorovning aybi uning sud majlisida bergan iqrorklik ko'rsatuvidan tashqari, to'plangan ish hujjatlariga asosan to'liq isbotlangan, deb topdi.

Huquqbuzarga nisbatan jazo qo'llashda sud uning shaxsini, yoshini, oilaviy sharoitini va



moddiy ahvolini, aybiga iqrorkligini, sodir etilgan huquqbuzarlikning ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasini, yetkazilgan moddiy zarar to'liq qoplanganligini inobatga olib, unga nisbatan qonun sanksiyasida nazarda tutilgan jarima jazosini qo'llashni lozim deb hisobladi.

Huquqbuzar O'zbekiston Respublikasi MJKning 61-moddasi 1-qismi bilan aybli deb topilib, sud qarori bilan unga bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari hajmida – 375 000 so'm jarima jazosi qo'llanildi.

Farhod ZOKIROV,
Jinoyat ishlari bo'yicha
Bekobod shahar
sudi sud'yasi.

YANA KITOBXON DAVLAT BO'LAMIZMI?

Kitob - insonning eng yaqin do'sti va maslahatchisi, aql qayrog'i va bilim manbaidir. Kitob fikrlash quroli, xazinalar kaliti, tafakkur manbai bo'lgani uchun ham ajdodlarimiz uni nonday aziz, mo'tabar va muqaddas deb hisoblagan.

YURTIMIZDA BIRINCHI
RENESSANS SODIR
BO'LISHINING ASOSIY SABABI

Barcha sharq va g'arb olimlarining e'tirof qilishlaricha, Yevropada 15-17-asrlar orasida yuzaga kelgan Birinchi Renessans yurtimizda undan bir necha yuz yil avval, ya'ni IX-XI asrlarda ro'y bergan. Ushbu ulkan yuksalishning sodir bo'lishining asosiy sabablaridan biri ajdodlarimizning ilmga, kitob o'qishga chanqoqligidir. Tadqiqotlardan ma'lumki, qayerda ilm, hunarmandlik, san'at yoki notiqlik, sport va boshqalar rivojlansa shu joylarda mana shu sohalarda dunyoga mashhur kishilar chiqqan. Ya'ni undaylar hech qachon qoloq bir o'lkalar-



dan yetishib chiqmaydi.

Kitobxonlikning yuksak darajaga chiqishiga davlatning e'tibori, mamlakat boshqaruvida olib borilgan odilona va oqilona siyosat, ta'lim-tarbiya ustuvor bo'lganligi natijasida o'lkamizda turli-tuman fanlarga, ayniqsa matematika, astronomiya, kimyo, tibbiyot, huquq, geodeziyaga qiziqish kuchaydi va dunyo tuzilishi haqidagi zamonaviy nazariyalarga aynan o'sha davrda asos solindi. Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy, imom Buxoriy, imom Termiziy,

imom Moturudiy, Abul Muin Nasafiy kabi buyuk ajdodlarimiz serqirra iste'dod sohiblari bo'lishlari bilan bir qatorda, o'z fanlari bo'yicha butun olamga ustozlik maqomiga erishdilar. Mazkur davr dunyo taraqqiyotining yuksalish tamoyillarini belgilab berdi, desak mubolag'a bo'lmadi.

ENDI KITOBGA QIZIQISH
QANDAY?

Mana shunday buyuk allomalar chiqqan yurtida endilikda ahvol afsuslanarli. Yurtdoshlarimizning, ayniqsa, yoshlarning kitob o'qishga qiziqishlari achinarli ahvolda. Aksariyat kishilar mobil telefonlariga mahliyo bo'lib qolishgan. Bir haftadan so'ng ko'pchiligi telefonda nima ko'rganligini ham eslay olmaydi.

Bozorda arava tortuvchi yoki semichka, meva-cheva sotuvchi ham bo'sh qoldi deguncha qo'l telefoniga yopishadi. Hattoki “yuqorida” yuruvchi bir hamkasbimning gapiga qaraganda u yoqda ham ahvol shu.


Kitobxonlikdan yuz burgan xalqning kuch-quvvati zaiflashadi, shon-shavkati ketadi, azizlik va ulug'lik mayog'i bo'lgan nuri so'nadi. Biz bu nurni so'ndirib qo'ymaslik uchun farzandlarimizni kitob o'qishga, ilm olishga qiziqitirishimiz shart. Kelajagi buyuk davlat qurishning asosiy omillaridan biri shu.

NEGA ULAR ILM VA
TEKNOLOGIYADA OLDINLAB
KETISHDI?

Hozirgi zamon xalqlarining ilm, texnologiyada bizdan bir necha yilga oldinlab ketganlariga nazar tashlaylik. Ular kitobxonlikni hayotlari va borliqlarining ajralmas qismiga aylantirishdi. Jumladan, Yaponlar dunyoning eng ko'p kitob mutolaa qiladigan xalqi hisoblanadilar. Xalqning 94 foizi faol ravishda kitob mutolaa qiladi. Janubiy koreyaliklar o'rtasida kitob o'qish 90 foizni tashkil qilar ekan.

Singapurda ham aholining katta qismi kitobxon sanaladi. Aholining 52 foizi ta'lim olish yoki ishlash maqsadida emas, balki shunchaki mutolaa zavqi sifatida kitob o'qiydi.

Yevropaliklar yiliga o'rtacha 200 soat kitob o'qishi ma'lum bo'ldi. Yevropa va yuqorida nomlari keltirilgan kitobxon davlatlar bizga nisbatan ancha rivojlangan. Oramizda kattagina



farq bor. Bizda xalqning necha foizi kitob o'qydi, bir yilda necha soatni kitob o'qishga sarflaymiz, deb o'zingizga hech savol berganmisiz. Agar bu savolga javob topsangiz nega biz dunyoning har taraflama taraqqiy etgan davlatlari qatorida emasligimizning sababini bilib olasiz.

Dunyoning rivojlangan oldi davlatlarida nafaqat kitobxonlik, hatto gazetxonlik ham yuqori darajada. Masalan Yaponiyada 5 million nusxada ertalab va kechqurun chiqadigan gazetalar ham sotuvda turib qolmaydi. Kitoblar millionlab nusxada, qayta-qayta chop etiladi.

Bizda kitob va gazetalarning nechta nusxada chiqayotganiga bir qarang. Shu zahoti bu borada ahvolning qanday ekanligi ayon bo'ladi.

HARAKAT BOR

Bu ahvolni o'zgartirish uchun mamlakatimiz aholisi, xususan, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib etish, ularning bu boradagi intilishlarini rag'batlantirish yo'lida ko'plab ezgu loyihalar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 12-yanvar kuni “Kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan” farmoyish e'lon qilingan edi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash Milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida”gi qarori qabul qilindi.

Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga bo'lgan bu sa'y-harakatlar o'z samarasini berishiga umid qilamiz.

Diyor ZULFIQOROV.

SHAXSIY MA'LUMOTLARNI OSHKOR QILISH TA'QIQLANADIMI?

Kadrlar bo'limi xodimi yashash joyim va oila a'zolarim haqida boshqalarga ma'lumot berishi mumkinmi? Shaxsga oid ma'lumotlar jumlasiga nimalar kiritilgan?

D. Botirov.

Shaxsga doir ma'lumotlar jumlasiga xodimning familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi va yashash joyidan tortib uning oila a'zolari va ularning hayotidagi ish beruvchiga ma'lum bo'lib qolgan faktlar, voqealar hamda holatlar haqidagi boshqa ma'lumotlar kiradi. Xodimning shaxsga doir ma'lumotlari to'g'risidagi axborot maxfiy axborot toifasiga taalluqlidir.

Amaldagi Mehnat kodeksining 178-moddasi-

ga muvofiq, xodimlarning shaxsga doir ma'lumotlarini saqlash, ulardan foydalanish va ularni berish ushbu kodeks hamda boshqa qonunlar talablariga rioya etgan holda ish beruvchi tomonidan belgilanadi. E'tiborlisi, ish beruvchi bunday ma'lumotlarni uchinchi shaxsga be-



rishda xodimning yozma roziligini olishi kerak. Faqat bundan xodimning hayoti va sog'lig'iga bo'lgan tahdidning oldini olish maqsadida, shuningdek ushbu kodeksda va boshqa qonunlarda nazarda tutilgan boshqa hollarda xabar qilish zarur bo'lgan hollar mustasno.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 46 prim 2-moddasiga ko'ra shaxsga doir ma'lumotlarni qonunga xilof ravishda yig'ish, tizimlashtirish, saqlash, o'zgartirish, to'ldirish, ulardan foydalanish, ularni berish, tarqatish, uzatish, egasizlantirish va yo'q qilish uchun fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravari, mansabdor shaxslarga esa – ellik baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

ISBOTLASH KIMNING
ZIMMASIDA?

Mehnat nizosi yuzaga kelib, ishdan chetlashtirilgan xodim o'zining aybsizligini isbotlashi shartmi? Ya'ni mehnat nizolarida isbotlash kimning zimmasida bo'ladi?

A. Karimov.

Mehnat nizolarida isbotlash 100 foiz ish beruvchining zimmasida bo'ladi. Har qanday holatda ish beruvchi xatti-harakatlarining qonuniyligini isbotlashi shart. Mehnat kodeksi(MK)da 8 ta holatda isbotlash degan so'z keltirilgan, ularning 7 tasi ayni ish beruvchining holatni isbotlashiga qaratilgan. Sudlar mehnat nizolarini ko'rishda ayni shu jihatlarga e'tibor qaratadilar.

Yakka tartibdagi mehnat nizolarini ko'rib chiqish chog'ida muddatli mehnat shartnomasini tuzishning asosililigini isbotlash vazifasi ish beruvchining zimmasiga yuklatiladi. (MKning 111-modda 9-qismi). Nizolarni ko'rib chiqish chog'ida ishga qabul qilishni rad etishning qonuniyligini isbotlash vazifasi ish beruvchining zimmasiga yuklatiladi. (MKning 120-modda 2-qismi). Mehnat nizosi yuzaga kelgan taqdirda, xodimning ish beruvchi bilan boshqa joyga ko'chib o'tishni rad etganligini isbotlash vazifasi ish beruvchining zimmasiga yuklatiladi. (MKning 146-modda 7-qismi). Mehnat nizolarini ko'rib chiqish chog'ida xodimni ishdan chetlashtirishning qonuniyligini isbotlash vazifasi ish beruvchining zimmasiga, xodim vakolatli davlat organlarining talabiga ko'ra ishdan chetlashtirilgan hollarda esa xodimni ishdan chetlashtirish to'g'risida qaror qabul qilgan tegishli davlat organining zimmasiga yuklatiladi. (MKning 154-modda 2-qismi). Nizolarni ko'rib chiqish chog'ida mehnat shartnomasi bekor qilinishining qonuniyligini isbotlash vazifasi ish beruvchining zimmasiga yuklatiladi. (MKning 174-modda 8-qismi). Yakka tartibdagi mehnatga doir nizo yuzaga kelgan taqdirda, ikki yoshga to'lmagan bola parvarishini amalga oshirayotgan xodimni boshqa ishga o'tkazish mumkin emasligini isbotlash vazifasi ish beruvchining zimmasiga yuklatiladi. (MKning 395-modda 3-qismi).

YAQIN QARINDOSHLAR BIR JOYDA ISHLASHI
MUMKIN EMASMI?

"Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonunga ko'ra, er-xotin, aka-uka va yaqin qarindoshlar bitta tashkilotda ishlashi mumkinmasmi?

Yu. Erkayev.

Mehnat kodeksi 121-moddasida o'zaro yaqin qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo'lgan shaxslarning aynan bitta davlat tashkilotida birga xizmat qilishi, agar ularning birga xizmat qilishi ulardan birining ikkinchisiga bevosita bo'ysunishiga yoki uning nazorati ostida bo'lishiga bog'liq bo'lsa taqiqlanishi belgilangan. Bunda ushbu toifadagi shaxslarga: ota-ona, aka-ukalar, opasingillar, o'g'illar, qizlar, er-xotin, shuningdek er-xotinning ota-onasi, aka-ukalari, opasingillari va farzandlari kirishi belgilangan.



Shunga ko'ra er va xotin o'zaro boshqaruv va bo'ysinuv tartibida ishlayotgan bo'lsa, ularning bir tizimda ishlashi mumkin emas. Biroq ikkisining lavozimi birining ikkinchisini nazorati ostida tutmasa yoki bo'ysunuvi ostida bo'lmasa, ishlashi mumkin.

QR KODLI CHEK BERISH
IXTIYORIYMI?

Do'kondan xarid qilsangiz sotuvchilarning ba'zilar QR kodli chek beradi, yana birlari esa bermaydi. Sotuvchilarning xaridorlarga chek berishlari ixtiyoriymi?

Q. Abduqodirov.

Sotuvchi har bir xaridorga QR kodli chek berishi shart. Bo'lmasa Soliq kodeksining 221-moddasi tartibida javobgarlikka tortiladi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining "Nazorat-kassa texnikasini va hisob-kitob terminallarini qo'llash tartibini buzish" deb nomlangan 221-moddasi bunga asos bo'ladi. Unga asosan nazorat-kassa texnikasining yoki hisob-kitob terminallarining qo'llanilishi majburiy bo'lgani holda, ularni qo'llamasdan savdoni amalga oshirganlik va xizmatlar ko'rsatganlik, xuddi shuningdek, sotib oluvchiga kvitansiyalar yozib berish, talonlarni, cheklarni yoki ularga tenglashtirilgan hujjatlarni berish majburiy bo'lgani holda bunday hujjatlarni bermasdan tovarlarni realizatsiya qilganlik va xizmatlar ko'rsatganlik, shuningdek hisob-kitob terminallari orqali to'lovlarni qabul qilishni rad etganlik besh million so'm miqdorida jarima solishga sabab bo'lishi belgilangan.

Xaridorlarga QR-kodli chek berilmaganlik uchun "Soliq" mobil ilovasining "Soliq hamkor" bo'limi orqali shikoyat yo'llash mumkin.

XODIMNING
OYLIGIDAN 70
FOIZGACHA USHLASA
BO'LADIMI?

Xodimning ish haqidan ushlab qolinadigan mablag'lar ish haqining ellik foizidan oshishi mumkin emas deb eshitgan edim. Mening oyligimdan aliment uchun 70 foiz ushlanishi qonunga zid emasmi?

B. Ilhomov.

Mehnat kodeksining 270-moddasiga asosan har bir to'lov chog'ida ish haqidan ushlab qolingani mablag'larining umumiy summasi xodimga haqiqatda hisoblangan ish haqining ellik foizidan oshishi mumkin emas. Biroq mazkur moddaning ikkinchi qismiga ko'ra, aliment majburiyatlari bo'yicha qarzdorlikni, shuningdek axloq tuzatish ishlari tarzida jazo tayinlangan xodimning ish haqidan ushlab qolishga nisbatan bu qoida tatbiq etilmaydi. Bunday hollarda aliment majburiyatlari bo'yicha qarzdorlikdan va axloq tuzatish ishlari tarzida jazo tayinlangan xodimning ish haqidan ushlab qolish miqdori xodimga haqiqatda hisoblangan ish haqining yetmish foizidan oshishi mumkin emas. Ya'ni aliment majburiyati mavjud bo'lgan va axloq tuzatish ishlari tarzida jazo tayinlangan xodimning 70 foizgacha oyligidan ushlash mumkin.

BIZ BILGAN, AMMO TAN OLMAGAN OFAT

Dunyoda tutunsiz tamaki mahsulotlarining har xil turlari va ularni iste'mol qilish usullari mavjud. Markaziy Osiyo mamlakatlarida tutunsiz tamakining eng keng tarqalgan shakli nosdir. Biz uchun oddiy ko'ringan ushbu mahsulot

minglab insonlarning bu hayotni erta tark etishlariga sabab bo'lmoqda.

O'zbekistonda ekspertlarning baholashicha, nos iste'mol qiluvchilar soni 2,5 million kishiga yaqin, ularning orasida yosh bolalar ham bor. Bu mahsulot bozorlar-

da, ko'chalarda va afsuski, ta'lim muassasalariga yaqin atrofda ochiq, erkin holda sotiladi. Nosvoyning bitta porsiyasi narxi filtrlı sigaretalar narxidan taxminan 4-5 baravar past bo'lib, bu uning yoshlar uchun hamyonbopligini ta'minlaydi.

TARKIBI VA TAYYORLANISHI

Nosning tayyorlanish va sotilish jarayonida hech bir sanitariya qoidalariga amal qilinmasligiga ko'pchilik guvoh bo'lgan. Negadir odamlarda nos shunday sotilishi, iste'mol qilinishi kerak degan qarash shakllangandek. Eng ayanchlisi, uning to'g'ri kelgan joyga noodatiy holda chiqindi sifatida betartib tupurib tashlanishi odatiy holga aylangan.

Tan olishimiz kerakki, ushbu holat atrofdagilar ta'bini juda xira qiladi. Tasavvur qiling, bunday holni ko'rgan yurtimizga tashrif buyurgan mehmonlar nima deb o'ylaydi? Ular nazdida biz kim bo'lib qolamiz?

Nosni tayyorlash usulini ko'rgan, tarkibida qanday moddalar borligini bilgan kishi nos chekishdan voz kechishi turgan gap. Ehtimol, nos kim uchundir ermak hisoblanar, ammo gigiena nuqtai nazaridan iflosligi, salomatlikka o'ta zararliligi kunday ravshan. Uning tarkibida nimalar yo'q, deysiz. Tamaki kukuni, ohak, kul, yog', yana allanmalar.



INSON ORGANIZMIGA SALBIY TA'SIRLARI

Nos markaziy asab tizimiga ta'sir ko'rsatib, ruhan va jismonan kuchli qaramlikni yuzaga keltiradi. Nos qonga so'rilib, bosh miya, jigar, buyrak, oshqozonosti bezi va boshqa organlarning faoliyatiga salbiy ta'sir etib, shu a'zolarining kasallanishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, og'iz bo'shlig'ida so'lak bezlari faoliyatining buzilishini yuzaga keltiradi.

Nos og'iz bo'shlig'i, xalqum, qizilo'ngach va oshqozonga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etib, shilliq qavatlarni doimiy shikastlaydi va shu ta'sir natijasida shilliq qavatlarda saraton kasalligining rivojlanishiga olib keladi. Bu kasallikka uchraganlarning 95 foizi nosga ruju qo'ygani ilmiy jihatdan isbotlangan.

Bundan tashqari, nosvoy iste'mol qilish yuraktomir kasalliklari va surunkali gipertoniyaga olib kelishi mumkin, homiladorlik paytida iste'mol qilinganda o'lik bola tug'ilishi, muddatidan oldin tug'ilish va kichik vazndagi bola tug'ilishi xavfini oshiradi.

Nos iste'mol qiladigan erkaklarda bepustlik, og'iz va milklarning yallig'lanishi, milklar atrofiyasi, karies kabi kasalliklar kuzatiladi.

Yaqinda Farg'ona, Toshkent, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo viloyati va Toshkent shahridagi nosvoylardan namuna olinib, Yapo-

ninyaning Kioto universitetida tekshirildi. Tekshiruv natijalari olimlarni ham hayron qoldirdi.



- Nosvoyda zararli moddalar sigaretadan ko'ra ko'p ekan - deydi bu jarayonda qatnashgan olim Jasur Jo'rayev.

RUHIY RIVOJLANISHGA YOMON TA'SIR KO'RSATADI



Nosvoyni qo'rqmasdan psixotrop moddalar qatoriga kiritish mumkin. Nos chekish o'smirlarning ruhiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi - zehn susayadi, xotira yomonlashadi, bola betayin, tuturiqsiz bo'lib o'sadi. Noskashlar ko'pincha xotiraning yomonlashuvi, parish-onxotirlikdan shikoyat qiladilar. Surunkali nos chekish oqibatida o'smirning shaxsiyati o'zgarib, uning ruhiyatida buzilishlar sodir bo'ladi.

Yosh bolalar nosvoy chekishga juda tez o'rganib qoladilar. Noskashlik ular uchun odatiy hol bo'lib qoladi. O'smir tez orada yangi, kuchliroq taassurotlarni - kuchliroq mast qiladigan narsalarni istab qoladi. Nosni ham saqich sotib olganday osonlik bilan sotib olib yurgan o'smir tez orada narkotiklarga ham o'tib ketmaydi, deb hech kim kafolat bera olmaydi.

NOPOK NARSALAR HAROM QILINGAN

Alloh taolo bandalariga faqat pok taom va ichimliklar iste'mol qilishni buyurgan. Agar biron narsa bandaning dini yoki dunyosiga, sog'lig'iga ziyon keltirsa, bunday narsa Mehribon Alloh taolo tomonidan harom qilinadi.

Quroni karimning Moida surasining 4-oyatida va A'rof surasining 157-oyatida insonlar uchun barcha pokiza narsalar halol qilingani hamda nopok narsalar harom qilinganligi haqida oyatlar keltirilgan.

Ushbu ikki oyatda Alloh taolo bandalariga faqat va faqat pok narsalarni halol qilishini, xamr, giyohvand moddalar, tamaki, nos va shunga o'xshash o'zi nopok, aql va qalbga, badanga zararli bo'lgan narsalarni harom qilishini ta'kidlamogda.

NIMA QILISH KERAK?

Nosvoy rasman narkotik modda deb e'tirof etilmagan, shuning uchun unga qarshi kurashishda hozircha faqat uning nima ekanini tushuntirish bilangina cheklanib qolinmoqda.

Ota-onalar, pedagoglar, shifokorlar va umuman har bir befarq bo'lmagan kishilar noskashlarga, yoshlarga bu iflos modda naqadar xunuk, yaramas ish ekanini tushuntirishlari, jamiyatimizda bunday yot illatlarning yo'qolib ketishiga o'z his-salarini qo'shsalar, degan umiddamiz.

NOSNI TASHLASH UCHUN TAVSIYALAR

Avvalo irodani ushlash zarur. Buning uchun nafs xohlagan havoyi narsalardan voz kechish kerak. Bu qish paytida yozda pishadigan uzumni yoz kelganigacha kutib yeyishni kutish kabidir. Kishi agar nosni tashlayman deb harakat qilsa, 15-20 kunda bunga erishadi. Irodani bo'sh qo'ygan kishi o'z nafsining quli hisoblanadi. Bu kabi insonlardan jo'yali natijani kutib bo'lmaydi. Nosni tashlagan va tashlash uchun kurashgan kishilar, yaqinlarimizning hatto yiqilib qolganliklarida ham bu qarordan qaytmaganliklarini ko'rganmiz. Ko'p yillar "nos staji"ga ega bo'lgan kishilar ham nosvoyni tashlash baxtiga erishganlar.

Nosni tashlovchilar uning xumori tutganda boshqa narsalarga, jumladan ishga chalg'ishi yoki biror achchiq konfetlar bilan nafsni ovuntirishi kerak.

Xumor tutganda yuqoridagi barcha zararlarni o'zimdanda qilishim kerak va zararlarni paydo qilmasdanoq tashlashim shart deya kishi o'ziga maqsad qo'yishi kerak.

Nosni ko'rganda eng jirkanch va iflos narsa ekanligini eslashi va yuz burishi kerak va yana tashlaganlik uchun shukr qilish lozimdir.

Sport bilan shug'ullanish yaxshi. Sport aqlni va tanani tozalaydi, chiniqtiradi va yana turmush tarzini yangilab, salomatlikka yetaklaydi.

Qalb xotirjamligini tiklash lozim. Qalbni xotirjamlik ila boshqarish kerak. Yaxshi va huzur bo'ladigan amal va ishlarni qilish va sof aqida va fikrga ega bo'lish kerak.

Nos chekishga qarshi kurashishning ilk kunlarida bemor uyqusizlik, ishtahasizlik, qon bosimining sakrashi, kayfiyat o'zgaruvchanligidan azoblanishi mumkin. Bu holat bir necha hafta davom etishi ham hech gap emas. Ayni shu pallada yaqinlari bunday kishilarga har qachongidan ham e'tiborliroq bo'lib, imkon qadar unga dalda berishga va hayotga bo'lgan ishtiyoqini oshirishga harakat qilishlari lozim.

**Sahifani shifokor
Mirzaburxon DO'SMURODOV
tayyorladi.**



JANNAT ONALAR OYOG'I OSTIDADIR

Islomiy odob kitoblarimizda onaga hurmat va xizmat ko'rsatish otadan oldin kelishi buyurilgan ko'rsatamalar-dan hisoblanadi.

Hadis. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam urushda qatnashish bo'yicha maslahat olgani kelgan bir odamdand:

– Onang bormi? – deb so'radilar.
– Ha, – dedi.
– U holda uning xizmatidan ayrilma, chunki jannat onalarning oyoqlari ostidadir, – dedilar.

Bahz bin Hakam otasidan, u esa o'z otasidan rivoyat qilishicha, Ibn Hakamning otasi shunday degan:

Bir kuni bir odam Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning yonlariga kelib:

– Ey Allohning Rasuli, kimga yaxshilik va itoat qilayin? – deb so'raydi. Rasul-ulloh sollallohu alayhi vasallam:

– Onangga.
– Keyin kimga?
– Onangga.
– Keyin kimga?
– Onangga?
– Keyin kimga?
– Otangga, keyin navbati bilan yaqinlaringga, – deyilar.

ONA DUOSI

Muso alayhissalom onalarini qabrga qo'yib, qabristondan chiqaverishlarida Alloh taolo shunday marhamat qiladi:

“Ey Muso, endi o'zingizni ehtiyot qiling!”

Bundan hayron bo'lgan Muso alayhissalom shunday deydilar:

“Ey Alloh, Sen menga shu paytgacha bunday demagan eding. Nimaga aynan shu bugun o'zimni ehtiyot qilishimni aytyapsan”.

Alloh taolo javob qiladi:

“Chunki, Siz har kuni uydan chiqishingiz bilan onangiz: “Bolaamni panohingda asra”, deb duo qilar edi. Mana shu duo sabab biz Sizni omonda saqlar



edik. Endi Sizni bunday duo qilguvchi zot yo'q!”

Alloh bilan to'g'ridan-to'g'ri suhbatlasha olgan Muso alayhissalom ham onalarining duolariga muhtoj bo'lgan ekanlar. Siz biz kim bo'libmiz!?

MUVAFFAQIYATLAR ORTIDA AYOLLAR TURADI



HAJVIYA

Bir guruh turistlar timsohlik fermasini ko'rgani borishibdi. Suvning o'rtasida qayiqda turganda ferma egasi: “Kim suvga sakrab, qirg'oqqacha tirik yetib olsa, bir million dollar beraman”, debdi. Hamma jim turganmish.

Shu payt bir yigit “shalop” etib suvga tushib, shosha-pisha qirg'oqqa suza boshlabdi. Timsohlar uning ortidan quvibdi, ammo yigitning omadi kelib, sog'salomat qirg'oqqa chiqib olibdi.

Fermer majbur bo'lib, va'da qilingan bir million dollar-ni beribdi.

Yigit xotiniga: “Yaxshi bo'ldi-yu, ammo men suvga o'zim sakramadim. Kimdir suvga itarib yubordi”, desa, xotini “o'sha men edim”, dermish.

Unutmang, erkaklar! Har bir muvaffaqiyatingiz ortida ayollar turadi.

RO'ZADORMISIZ?

Bir necha yigit Ramazon oyida bir mo'ysafid otaxonning odamlar ko'zidan pana joyda taom yeyayotganini ko'rib qolishibdi:

– Ie, otaxon! Siz ro'zadormasmingiz?

Otaxon:

– Nega? Albatta ro'zadorman. Faqat suv ichib, taom yeyapman, xolos.

Yigitlar qah-qah kulib yuborishibdi:

– Rostdanmi otaxon?

Otaxon dedi:

– Kimsaga yomon nazar tashlamayman. Birovni mazax qilmayman. Insonlarni g'iybat qilmayman. Hech kimning ko'ngliga ozor yetkazmayman. Odamlarga qo'pol muomala qilmayman. Birovning moliga ko'z olaytirmayman. Lekin... ming afsuski kasalim bor... Oshqozonim kasal. Shunga me'damni ro'zador qilolmayapman.

So'ngra otaxon yigitlardan so'radi:

– Sizlar ham ro'zadormisizlar, bolalarim?

Yigitlardan biri xijolatdan boshini egib ohista ovozda javob qaytardi:

– Yo'q! Biz faqat ovqat yemayapmiz, xolos...

Siz ro'zadormisiz?

BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

Ba'zi ayollarga o'ziga berilgan dam olish va ovqatlanish uchun beriladigan tanaffusdan tashqari yana qanday va qancha muddat tanaffus beriladi?

Markaziy Osiyoda birinchi ayol-dirijor kim?

XII asrda harbiy yurishlar vaqti-da nemis qo'mondonlaridan biri zabt etilgan shahardan faqat ayollar chiqib ketishlari hamda o'zlari bilan eng zarur va kerakli narsalarnigina ko'tarib chiqishga ruxsat beradi. Ayollar nimani o'zi bilib olib chiqib ketganlar?

Har yili 3 ish kunidan kam bo'lmagan haq to'lanadigan qo'shimcha ta'til va 14 kalendar kundan kam bo'lmagan ish haqi saqlanmagan ta'til ayollarga nega beriladi?

Fors podshohi Kir II ni jang maydoni-

da yenggan ayolni bilasizmi?

Birinchi o'zbek parovoz mashinisti bo'lgan va parashyutda sakragan ilk ayol?

Ayollar nimada erkaklardan ikki barobar kuchli bo'ladi?

Ayollar va erkaklarning bo'ynidagi farqi bilasizmi?

Javoblarni gazetaning keyingi sonidan bilib olasiz.

Gazetaning o'tgan sonidagi savollarning javoblari.

* Temur tuzuklari.
* Buxoradagi Mirzo Ulug'bek mad-rasasi.
* “Bobur” (Sher).
* Oqsaroy.
* Mutafakkir, adib va davlat arbobi ekanligida.

KELING, BIR KULISHAYLIK!

Boyning xotini dugonasiga hasrat qilayapti.

– Bilasanmi, yaqinda go'zallik saloniga borish uchun erim-dan 500 dollar so'rasam, u aftimga razm solib turib... 1000 dollar berdi-ya, yaramas.

– Hoy, dadasi! – dedi Afandining xotini eriga o'shqirib. – Qo'shni-miz xotiniga yana bitta palto sovg'a qilibdi, ko'rdingizmi?

– Ha, ko'rdim, lekin qo'shnimiz uch marta uylandi, men hasad qil-ganim yo'q-ku! – debdi Afandi.

Bir odam shaharga borib, xotinini yo'qotib qo'yibdi. Noiloj militsiyaga murojaat qilibdi.

– Xotiningning alohida belgilari bormi?

– Bu nima degani?

– Senga qanday tushuntirsam ekan. Mana, masalan, mening xotinimning qoshlari kamondek, ko'zlari qop-qora, xorijiy mo'yna po'stinda. Tushundingmi?

– E-e, meniki pakana, oyoqlari maymoq... Menga qara, og'ayni, kel, yaxshisi sening xotiningni izlaylik!...



MUASSIS:
**O'zbekiston metallurgiya
kombinati aksiyadorlik jamiyati.**

WWW.uzbeksteel.uz

Muharrir:
Ismadiyor MAMATQULOV

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar
“O'zmetkombinat”
aksiyadorlik jamiyatining
Metallurglar madaniyat saroyida
joylashgan.
Tel: 10-19

**Gazeta oyda bir marta
chiqadi.**

Gazeta tahririyat kompyuterida
terilib, sahifalandi va “Niso
nashriyot va matbaa uyi” MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
O'rta Chirchiq tumani “Mash'al”
mahallasi, “Markaziy” ko'cha, 1-uy.

Sahifalovchi:
Ismoil Umatkulov

Bosishga topshirish vaqti 17.00
Bosishga topshirildi-14.20
Adadi 600. Bichimi A-3.
ISSN 2181-645X
Gazeta “O'zmetkombinat”
Ajda bepul tarqatiladi.

Buyurtma №